



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT  
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT SHAHRIDA  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


*Dastlabki ma'lumot  
2024 - yil yanvar*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 71-203-88-20(21)***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 14 040 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 284 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 756 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar oyida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 5 473,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 114,7 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 439,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 033,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 114,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 137,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>5 473,1</b>	<b>114,7</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	488,0	118,3
Bektemir	177,8	116,3
Yunusobod	664,1	110,1
Mirzo Ulug'bek	413,1	120,0
Mirobod	434,5	120,7
Shayxontohur	563,6	108,3
Olmazor	440,7	107,8
Sirg'ali	285,0	113,5
Yakkasaroy	569,0	118,7
Yashnobod	514,6	121,5
Yangihayot	71,0	126,8
Chilonzor	851,7	111,9


2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (126,8 %), Yashnobod (121,5 %) va Mirobod (120,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)



So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil qildi.

## 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **114,7 %** ni tashkil qildi.

*Ulushi, foizda*




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 15,6 % bilan 851,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,3 % bilan 71,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*








## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 033,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 14,7 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 55,4 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 14,7 % ga o'sdi va 2 439,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 44,6 % ulushiga to'g'ri keldi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



### CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko‘ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Yangihayot (9,1%), Yakkasaroy (7,3%) va Chilonzor (7,1%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 44,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (6,4%), Shayxontohur (5,3%), Mirobod (5,1%), Yashnobod (4,9%) tumanlarida kuzatildi.


44,6 %



55,4 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Toshkent shahri

1 825,2

Yangihayot

422,8

Uchtepa

1 645,9

Chilonzor

3 113,9

Bektemir

3 060,2

Yunusobod

1 787,2

Mirzo Ulug'bek

1 263,0

Mirobod

2 881,0

Shayxontohur

1 552,6

Olmazor

1 102,4

Sirg'ali

1 724,2

Yakkasaroy


4 370,3

Yashnobod

1 745,6

2024- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 825,2 ming. so'mni (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 111,2 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (4 370,3 ming. so'm), Chilonzor (3 113,9 ming. so'm) va Bektemir (3 060,2 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023 - yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>114,4</b>	<b>137,6</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	12,6	2,1 m.
Bektemir	19,6	96,5
Yunusobod	11,8	64,2
Mirzo Ulug'bek	23,8	11,5 m.
Mirobod	4,3	173,9
Shayxontohur	16,5	61,8
Olmazor	2,7	155,8
Sirg'ali	4,2	153,0
Yakkasaroy	2,2	2,2 m.
Yashnobod	7,8	5,6 m.
Yangihayot	-	-
Chilonzor	8,8	35,0 m.


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar)



Toshkent shahri bo'yicha 2024- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 114,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 137,6 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 106,9 mlrd.so'mni (138,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 7,4 mlrd so'mni (128,4 %) tashkil etdi .













2024-yilning yanvar oyida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 106,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (52,4 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>52,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>49,0 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>9,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>8,8 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>8,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>7,4 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>6,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,8 %</p>	<p><b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>6,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,6 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>3,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,7 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>8,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>8,3 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>3,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,6 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak</b></p> <p><b>- mlrd. so'm</b></p>  <p>-%</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>3,4 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,2 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>2,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,3 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>2,4 mlrd. so'm</b></p> <p>2,2 %</p>

2024- yilning yanvar oyida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 7 441,7 mln. so'mni (128,4 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 6 073,9 mln.so'm, qo'y va echkilar – 870,0 mln. so'mni, otlar – 492,7 mln. so'mni, parrandalar – 5,1 mln. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>3 144,6 mln. so'm</b></p>  <p>2,7 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>1 232,8 mln. so'm</b></p>  <p>1,1 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>1696,5 mln. so'm</b></p>  <p>1,5 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>756,6 mln. so'm</b></p>  <p>0,7 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>492,7 mln. so'm</b></p>  <p>0,4 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>113,5 mln. so'm</b></p>  <p>0,1%</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>2,9 mln. so'm</b></p>  <p>0,003 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>2,2 mln. so'm</b></p>  <p>0,002 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>- mln. so'm</b></p>  <p>-</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>- mln. so'm</b></p>  <p>-</p>		



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 935 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 859 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>618,4</b>	<b>120,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	17,0	114,8
Bektemir	11,5	131,1
Yunusobod	82,0	123,2
Mirzo Ulug'bek	58,2	113,4
Mirobod	43,5	113,0
Shayxontohur	177,0	124,3
Olmazor	28,0	120,7
Sirg'ali	47,2	110,2
Yakkasaroy	53,5	126,1
Yashnobod	38,5	111,4
Yangihayot	9,1	116,4
Chilonzor	52,9	126,1

2024- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 618,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 120,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 54,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 459,7</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	117,8	4,8
Bektemir	126,2	5,1
Yunusobod	171,2	7,0
Mirzo Ulug'bek	140,0	5,7
Mirobod	133,5	5,4
Shayxontohur	263,0	10,7
Olmazor	23,6	1,0
Sirg'ali	753,4	30,6
Yakkasaroy	231,7	9,4
Yashnobod	159,9	6,5
Yangihayot	170,3	6,9
Chilonzor	169,3	6,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (753,4 mlrd. so'm), Shayxontohur (263,0 mlrd. so'm) va Yakkasaroy (231,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 2 459,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 21,6 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 922,4 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 105,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 537,3 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati – 134,4 %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshkent shahari bo‘yicha 2024- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 387,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 16,0 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 6 543,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,5 % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 63,0 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 16 952 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 224 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 16 728 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Bektemir (144,1%), Yunusobod (129,6%) va Mirobod (121,9 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>	<b>10 387,6</b>	<b>116,0</b>
Uchtepa	649,2	116,5
Bektemir	140,0	144,1
Yunusobod	1 040,5	129,6
Mirzo Ulug'bek	766,5	105,3
Mirobod	1 199,8	121,9
Shayxontohur	563,1	116,7
Olmazor	1 613,5	102,6
Sirg'ali	443,8	121,3
Yakkasaroy	1 398,6	116,9
Yashnobod	1 316,4	119,1
Yangihayot	64,6	109,7
Chilonzor	1 191,7	118,4